

ENTERIOBAKTERIOZLARDA QO‘Y GO‘SHTINI VA ICHKI ORGANLARINING BIOLOGIK XAVFSIZLIGINI O‘RGANISH

Tuxtamishov Nodir Sobirdin o‘g‘li

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti, Toshkent filiali assistenti

Mingishev Yunus Yusuf o‘g‘li

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti, Toshkent filiali assistenti

Kamolov Fayzulloxon Burxon o‘g‘li

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti, Toshkent filiali assistenti

ANNOTATSIYA

Chorvachilik sohasining muhim tarmoqlaridan biri bo‘lgan qo‘ychilik ham aholiga sifatli va to‘yimli oziq-ovqat yetkazib berish manbai xisoblanadi. Qo‘ylarni yuqumli kasalliklar bilan kasallanishi shu jumladan salmonellyoz bilan kasallanishi qo‘ychilik xo‘jaliklarida ularning bosh sonini kamayishi mahsuldorlikning kamayishi kabi oziq-ovqat bazasini ta‘minlashga salbiy ta‘sir o‘kzadi. aholini go‘sh t mahsuloti bilan yetarli miqdorda ta‘minlash imkoniga salbiy ta‘sir qiladi. Salmonellyoz kasalligida qo‘y go‘sh tining fiziko-kimyoviy, biologik ko‘rsatkichlari va ichki organlarining sifatiga ta‘sir qiladi.

Kalit so‘zlar: Chorvachilik, Salmonelloz, Enterobakterioz

ANNOTATION

Sheep breeding, one of the most important sectors of the livestock sector, is also a source of quality and nutritious food for the population. Infectious diseases of sheep, including salmonellosis, have a negative impact on the provision of the food base, such as reduced productivity in sheep farms. negatively affects the ability of the population to provide adequate meat products.

Key words: *Animal husbandry, Salmonellosis, Enterobacteriosis*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 18 martdagi PQ-4243-sonli “Chorvachilik tarmog’ini yanada rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida chorvachilik rivojlangan davlatlardan naslli mollarni keltirish, ularning nasliy ko‘rsatkichlaridan foydalanib, podani to‘ldirish uchun tanalarni xo‘jaliklarning o‘zida yetishtirish, hayvonlar kasalliklariga qarshi tadbirlar samaradorligini oshirish hamda chorvachilikda epizootik barqarorlik hamda oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta‘minlash, tizimda uchrayotgan kamchiliklarni bartaraf etish, veterinariya xizmatlari ko‘rsatishni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqilishi nazarda tutilgan.

Qishloq xo‘jaligining barcha sohalari qatori chorvachilikni rivojlantirish, aholini yuqori sifatli chorva mahsulotlari, sanoatni xom ashyo bilan yetarli darajada ta‘minlash hozirgi davrning dolzarb talabidir. Sohani rivojlantirishning asosiy omillaridan biri – mustahkam ozuqa bazasini yaratish, chorva mollari zotini yaxshilash, hamda chorvachilik texnologiyasini takomillashtirib borishdan iborat. SHuning bilan bir qatorda chorva mollari orasida uchrab turadigan va katta iqtisodiy zarar yetkazadigan enterobakterioz kasalliklari chorvachilikni rivojlanishiga to‘sqinlik qilmoqda. Enteriobakterioz kasalliklari orasida keng tarqalganlari bu - *Salmonellyoz va Kolibakterioz* kasallikaari hisoblanadi.

Quyidagi ma‘lumotlardan ko‘rinib turibdiki bu ikkala kasalliklar ham bir biriga juda o‘xshash ammo chorvachilik xo‘jaliklariga keltirib chiqaradigan iqtisodiy zararlari bir biridan farq qiladi. Salmonellyoz kasalligida qo‘zilarning o‘limi 15 – 45

foizni tashkil etsa, kolibakteriozda esa bu ko'rsatgich 10 – 20 foizni tashkil etadi. Salmonellyoz kasalligi bilan kasallangan qo'zilar va yosh hayvonlar, kolibakterioz kasalligi bilan kasallangan qo'zilar va yosh hayvonlarga nisbatan o'sish va rivojlanishdan qoladi, mahsuldorligi tushib ketadi. Yana salmonellyoz kasalligida ajralib chiqadigan toksinlar hayvonlar va odam salomatligiga kolibakterioz kasalligiga nisbatan kuchli ta'sir etadi. Shu sababli biz enterobakterioz kasalliklardan salmonellyoz kasalligi bo'yicha ilmiy ish olib borishni tanladik.

Enterobakteriozlarda qo'y go'shtini va ichki organlarining biologik xavfsizligini o'rganish maqsadida 15 ta oq sichqon 3 ta guruhga ajratildi. 1 nazorat guruhdagi oq sichqonlariga sog'lom hayvon go'shti yedirildi, 2-tajriba guruhidagi oq sichqonlariga Boliyev Rustam (Xatirchi tumani Mustaqillik MFY) qo'yining go'shti va ichki organlari yedirildi (ushbu qo'y klinik, patologoanatomik, mikrobiologik va vetsan ekspertiza natijalari bo'yicha salmonellyoz kasalligi bilan kasal deb qabul qilindi). 3-tajriba guruhi oq sichqonlariga Ergashov Abdumajidning (Xatirchi tumani Mustaqillik MFY) qo'yining go'shti va ichki organlari yedirildi (ushbu qo'y faqat klinik va serologic tekshiruvlarida ijobiy natija ko'rsatib, salmonellyoz kasalligiga gumon deb qabul qilindi).

Salmonellyoz kasalligi aniqlangan namunalarni oq sichqonlarga yedirib biologik xavsizligi o'rganilgandagi kuzatuv jarayonlari aks etgan

1 - jadval

№	Guruhlar	7 kun davomida olingan natijalar
1	1-guruh 5 ta sichqon	Oq sichqonlarda o'zgarish yo'q
2	2-guruh 5 ta sichqon	2-kundan boshlab ishtahaning yo'qolishi, kam harakatlik kuzatildi. 3- kunda 3 tasi, 4-kun esa 2 tasi o'ldi.
3	3-guruh 5 ta sichqon	2-kunda 1 tasi, 3-kunda 1 tasi o'ldi.

Yuqoridagi biosinov tajribasida ko'rinib turibdiki sog'lom qo'y go'shti va ichki organlaridan olinib, oq sichqonlarga yedirib kuzatilganda hayvonlarda klinik belgilar ko'zga tashlanmasdan o'zining hayotiy biologik jarayonlarini o'zgartirmagan xolatda bo'ldi.

Gumonlanayotgan qo‘y goshti va ichki organlaridan olinib, oq sichqonlarga yedirib, ularni 1 hafta davomida kuzatganimizda 2- kunga kelib, ovqatlanish va harakatlanishida biroz o‘zgarish kuzatildi (ishtahaning yo‘qolishi, kam harakatlilik, etiborsizlik) 3- kunda 2 ta sichqon o‘ldi. Qolganlari esa faol va sog‘lom edi.

Salmonellyoz kasalligi qo‘zg‘atuvchisi aniqlangan qo‘y go‘shiti va ichki organlarini yedirib bir hafta davomida kuzatganda, 2- kunga kelib uchta sichqonda dastlabki o‘zgarishlar (harakatlar susayishi, ishtahaning pasayishi) kuzatildi. 3- kunga kelib esa 3 ta sichqon o‘ldi. Oltinchi kunga kelib qolganlari o‘ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. *Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 485 b.*
2. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-4947-sonli Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.*
3. *O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining “Iqtisoslashtirilgan so‘yish korxonalarini faoliyatini tartibga solish hamda istemol bozoriga go‘shiti va go‘shiti mahsulotlarini etkazib berishtizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 8-maydagi №386-sonli qarori.*
4. *Veterinariya sanitariya ekspertizasi A. Axmedov*
5. *Veterinariya ishini tashkil etish va iqtisodi. R.B. Davlatov. B.T. Norqobilov. Sh.X.*
6. *Qurbonov. 2019-y*
7. *Parmanov M.P. va boshqalar “Epizootologiya” darslik Samarqand 2010*
8. *Parmanov M.P. va boshqalar. Epizootologiya. T. 2007 y.*